

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA “ART TERAPIYA” NING AHAMIYATI

Abidova Dilafuz Sattarovna

Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida kata yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda “Art terapiya”ning ahamiyati va foydalanish usullari haqida ma'lumot berilgan. Mazkur maqoladan maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologlari, logopedlari va tarbiyachilari foydalanishi mumkin.*

Kalif so'zi: *Art terapiya, ijodiy faoliyat, maktabgacha ta'lim, kata yoshdagi bola, ijodkorlik, qum, yorma, estetik tarbiya, ahloqiy tarbiya, ruhiy tarbiya.*

O'zbek xalqining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy “Menga yoshlarni ko'rsatsangiz mamlakatimiz ertasi qanday bo'lishini aytib beraman” deganida ming bor haq edi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek O'zbekistonning ertangi kunining ishonchi mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohatlarni ilimdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi. “Ijodkorlik” sohasidagi o'quv tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6 – 7 yoshli bola quyidagi layoqatlarga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan: san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi; milliy an'analarni qadirlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi, san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyo o'zgartirishdagi yaratuvchanlik ro'lini tushunadi. Maktabgacha kata yoshdagi bolalarni ma'naviy-xissiy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o'rnini katta. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar musiqani badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqiy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanishida. Ularda ayrim musiqi janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi. Ulardan mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar,

she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar, endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladilar. Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarining eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiy asarlaridagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar.

Tevarak - atrofdagi go'zallikka, san'atga badiiy o'yin va faoliyatning har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi. Bolalar badiy asar qahramonlari xatti harakatiga juda kata his-hayajon bilan munosabat bildiradilar, ammo ularning fikrlari aniq, barqaror emasligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha kata yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida jamoa bo'lib ishlash malakalarini shakillantirish dolzarb ahamiyatga molik masalalardan biridir. Bolalarni tasviriy faoliyat orqali turli ranglar jilosini his etishga, estetik qobilyatlarni o'stirishga faol chuqur fikrlashga va (rasm, loy ishi, applikatsiya, qurish yasash) bolalarda nafaqat qiziqish uyg'otadi balki ularni o'rab turgan olamni o'z ishida aks ettirishda, olamni ko'z oldida yaxlit xolda namoyon etishda va umuman har tomonlama shakillanishga (estetik ahloqiy, aqliy) turtki bo'ladi. Bolalardagi fikrlash qobilyatini rivojlantirish uchun badiy qobilyatning hamma turlaridan ham xayolining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlaanadi. Bolalarni ijodiy maqsad qo'yishga o'rgatiladi. Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini bayramlarda ko'ngil ochish kechalarda, ekskursiya va sayrlarda, har xil o'yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o'zlarining badiy ijodi mahoratlarini, qobilyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart sharoitini yaratib berishi zarur. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondaashishi lozim. Shu orqali u bolalarning o'ziga xos qobilyat va imkoniyatlarni o'rganadi. Bolalar orasida ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga xavas juda erta uyg'onadi. Ammo bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash huquqini bermaydi. Bolalarga rasm ishlash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o'rgatish g'oyasi birinchilardan bo'lib italiyalik san'atshunos Korrodo Richchi tomonidan qo'llab quvatlangan bo'lib, ularsiz hatto kattalar ham bolalarning bilim saviyalari darajasida qolishi mumkinligini ta'kidlagan. Filodelfiyadagi badiy ishlab chiqarish maktabining direktori, akademik Liberti Tedd qo'lining chaqqonligi, uning harakatchanligini tasvir mazmunini ifodalashning muhim sharti sifatida qaragan. Uning fikrini qo'llab quvvatlaagan holda ta'kidlash joizki, qo'lning chaqqonligi rasm ishlash

texnikasini egallash, keng ma'noda bolalarda tasviriyl savodxonlik elementlarini rivojlantirish uchun zarur. Qum bilan rasm chizish so'ngi o'n yillikning zamonaviy sevimli mashg'ulotlarida biri bo'lib kelmoqda. Bu san'at orqali bolalarda ijodiy faoliyat shakillanmoqda. Qum bilan ishlagan bolalarda qo'l matorikasi faol rivojlanadi, bu esa o'z navbatida nutqni shakillantirishga va mavjud nuqsonlarni bartaraf etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkala qo'lining harakatini aniqroq muvofiqlashtirish qobilyati paydo bo'ladi. Qum bilan rasm chizish bolalarda ham kattalar orasida ham xayoliyl fikrlarni rivojlantirishga yordam beradi. Tajribali rassomlar esa qumdan ajoyib animatsiyalar yaratadilar, qisqa vaqt ichida bir-birlariga silliq oqib tushadigan rasmlardan iborat butun bir hikoya oldimizda gavdalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki erta ta'lim – tarbiya insonning butun umri davomida farovon va bahtli hayot kechirishi uchun mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan birga, erta ta'lim-tarbiya bolaning ijtimoiyl hissiyl, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini birlashtirishga qaratilgan. Bolalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish asosida estetik tarbiya ham shakillanadi. Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakillantirishga yordam beradi. Bolalarda ijodiy faoliyatni shakillantirishda Art terapiya va qum san'atidan foydalanish yaxshi natijalarni yuzaga chiqaradi. Art terapiya faoliyatlarida bolalar qiziqishlari va emotsiyalari rivojlana boradi. Yangilik yaratishga bo'lgan qiziqish ijobiy his-tuyg'ular va emotsiyalar shakillana boradi. Bolalar rasm chizish jarayonida turli ranglarni xosil qilishdi. Har bir bola o'zi xohlagan rasmini ozi xohlagandek tasvirladilar. Bu jarayonda bolalarning kayfiyatlari ko'tarildi, o'rtoqlariga nisbatan ham xushchaqchaq munosabatda bo'lishdi. Qumda rasm chizish jarayonida bolalarda avvalo hayratlanish hissi kuzatildi.

Sababi bolalar avval bu jarayonni kuzatmaganlar. Qumda rasm chizish jarayonida manniyl yormasidan foydalandik. Chunki qum gigiena talablariga va bolalarning sog'lig'li muhofazasiga salbiyl ta'sir ko'rsatadi. Bolalar qiziqqanliklaridan xatto yormani ogizlariga solib ko'rishdi. Rasm chizish jarayonida zavq va hayojon bilan rasm chizishdi. Yosh avlodga talim tarbiya berish jarayonida bugungi pedagoglarning zamonaviyl yutuqlaridan foydalanib, hamda interfaol usullardan foydalanishimiz kerak. Art terapiya ham bugungi kunda pedagogika psixologiya sohasida juda kech tarqalmoqda. Biz ham mashg'ulot o'tish jarayonida Art terapiyadan foydalanish juda samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO"YXATI:

1. Sh. M.Mirziyoyev Oliy majlisga murojat. "Xalq sozi" gazetasi 2021yil
2. PQ- 3261 09.09.2017 Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlar to'grisida
3. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikasiya mashg'ulotlari metodikasi. D.M.Mahmudova T.2019
4. Yosh bolalar uchun art terapiya A.I.Ko'pitin, E.E. Svistovskaya